

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Akobir To'xtayev "Ta'lim homiysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

// 04 January 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/talimhomiysi>



Prezidentimiz tomonidan maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur degan muhim g'oya ilgari surilgan. "O'zkimyosanoat" AJda ham ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish yuzasidan xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "O'zkimyosanoat" AJ homiyligida Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida joylashgan 19-maktabni to'liq ta'mirlash va jihozlash ishlari olib borildi.

Bundan tashqari "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan ta'lim muassasalaridagi kimyo va biologiya sinf xonalari hamda ularning laboratoriyalarini ta'mirlash, jihozlash va o'quvchilar uchun zarur-shart-sharoitlarni yaratish kabi sa'y-harakatlar doimiy amalga oshirib kelinmoqda.

Xalq ta'limi tizimiga ko'rsatilayotgan e'tiborni e'tirof etgan holda, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining

birinchi o'rinbosari Akobir To'xtayevga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Ta'lim homiysi" ko'krak nishoni topshirildi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati